

## INGLIZ TILINING TURIZM SOHASIDAGI O'RNI

*Qarshi davlat universitetining  
pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti  
yo'nalishi 1- bosqich, 6-21- guruh talabasi*

*Halimova Sevara Ruslan qizi*

*Ilmiy maslahatchi: Qosimov Anvar*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda turizm sohasida ingliz tilining ahamiyati ,ingliz tilining xalqaro turizmni rivojlantirishda tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi .

**Kalit so'zlar:** Jahon turizmi , ingliz tili , xalqaro til ,dunyo aholisi ,ona tili ,rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о важности английского языка в сфере туризма в современном быстро развивающемся мире, роли английского языка в развитии международного туризма.

**Ключевые слова:** мировой туризм, английский язык, мировое население, международный язык, родной язык, разработка.

**Annotation:** This article provides information about the importance of the English in the field of tourism in today's rapidly developing word and the role of the English language in the development of international tourism.

**Keywords:** International tourism, English language, international language, world population, mother tongue, development.

### Kirish

Bugungi kunda hamma sohada bo'lganidek, turizmni rivojlantirish sohasida ham ingliz tiliga bo'lgan talab oshib bormoqda. Dunyo tajribasidan ma'lumki,ingliz tili xalqaro til bo'libgina qolmasdan , jahon aholisining yarmi uchun bu til ona tilidir . Bundan kelib chiqadigan bo'lsak,eng keng qamrovli va dunyo bo'ylab eng ko'p gapiriladigan til bu ingliz tilidir. Turli xil variantlarni, va ko'plab o'ziga xos xususiyatlarga egaligiga qaramasdan, ingliz tili dunyodagi eng ommaviy til darajasiga ko'tarilmoqda. Umuman olib qaraydigan bo'lsak, jahonning yirik tarmoqlari, mamlakatlarni jahon maydoniga tanitadigan iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan va texnika, zamonaviy sport ,xalqaro turizm kabi ko'pgina sohalar rivoji bevosita ingliz tili orqali kechadi . Bundan tashqari, dunyo siyosatida ,davlatlararo munosabatlarni tashkil etishda, ilm-fanning ilg'or yutuqlarini tatbiq etishda, xalqaro savdo, millatlararo transport va aloqa almashuvi jarayonida, olimlar ,akademik va fan doktorlari uchun xalqaro konferensiyalar, sammitlar va davlat ahamiyatidagi tadbirlarni tashkil etish mobaynida,davlatlar o'rtasida sport musobaqalari ,Olimpiya o'yinlari va barcha

xalqaro turnirlar miqiyosida ,raqamli texnologiyalar, gadjetlar foydalanuvida ingliz tili eng asosiy til sifatida namoyon bo'ladi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Ingliz tilining jahon turizmida tutgan o'rniga nazar tashlaydigan bo'lsak , bu til dunyo aholisi orasida qamrovi jihatidan juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Jahonning aksariyat mamlakatlari bu tilni rasmiy til sifatida qabul qilgan va ona tili bilan birgalikda ingliz tilida muloqot qiladi . Bu esa shuni anglatadiki, dam olish istagi bilan sayohatga chiqqan sayyohlar ingliz tilini bilsa, dunyoning ko'pgina mamlakatlariga oson va qulay sayohatni tashkil etishlari mumkin. Qolaversa, bir mamlakatdan boshqa mamlakatga sayohat qilish uchun albatta transportning poyezd, samolyot yoki dengiz orqali turlari tanlanadi. Xalqaro avia-qatnovlar, reyslardagi va xalqaro portlardagi xizmat ham ingliz tilida olib boriladi . Bundan tashqari tur agentliklarining aksariyati o'z faoliyatini ingliz tilida olib boradi . Sayyohlik - turizm globallashtirish natijasida jahon aholisining dam olishga bo'lgan ehtiyojlari ortishi natijasida rivojlanib borayotgan sohalaridan biridir . Turizm - iqtisodiyotning ko'pgina sohalarini ,jumladan transport ,aloqa, yo'l qurilishi , mehmonxona va umumiy ovqatlanish ,servis , maishiy xizmat ko'rsatish, savdo industriyasi kabilarni qamrab olgan va bevosita rivojlantirishga imkon yaratadigan tarmoqdir. Turizm ba'zi mamlakatlar uchun asosiy mablag' keltiruvchi manba hamdir. Turizm orqali ba'zi davlatlar o'z xalqining farovon turmushini ,yashash sharoitini qo'llab-quvvatlaydi .Turizm dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yagona tizim sifatida rivojlanib , mamlakat byudjetiga salmoqli daromad olib keladi . Turizm nafaqat jahonning eng yirik tarmoqlaridan biri, balki dinamik ravishda rivojlanayotgan sektorlaridan biridir.Turizmga turlicha yondashuv va ta'riflarni keltirish mumkin. Turizm- odatdagi muhitdan tashqarida dam olish, ishga,ta'limga aloqador yoki boshqa ijtimoiy maqsadlarda bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda sayohat va joylarda bo'lishni amalga oshirgan shaxs faoliyatidir , deya ta'rif beriladi 1991-yil Ottavada bo'lib o'tgan BTT- Butun Jahon Turistik Tashkiloti konferensiyasida . O'zbekiston Respublikasining " Turizm to'g'risida" gi Qonunining 3- moddasida turizm quyidagicha ifodalanadi: " Turizm - jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy , yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyida (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi ( sayohat qilishi ) dir . Turizm - dam olishni, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishning ommaviy shaklidir . Turizmning barcha shakllari qaysidir sayohatni o'z ichiga oladi ,lekin sayohatning hamma turi ham turizm bo'lavermaydi . Bu soha o'z navbatida tarmoqlarga ajraladi ,jumladan, sport turizmi ,ta'limiy turizm, ijtimoiy turizm ,rekrayesiya maqsadidagi turizm ,ekzotik turizm, ekologik turizm ,sayohat turizmi va hk.

### **Muhokama**

Turizm sohasida ham chet tillarining, jumladan ingliz tilining ham ahamiyati beqiyos. Chunki bu sohada ham chet tillarini puxta egallagan ,malakali xodimlarga bo'lgan talab yuqori . Aksariyat mehmonxona va servis tamoqlarining yetakchi tili ingliz tilidir . Qolaversa, xalq mqollarining birida aytilganidek, " Til bilgan - el bilar " . Zero , shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda turizmning bir bo'lagiga aylanib , dunyo ko'rmoqchi, sayohatga chiqib o'z dunyoqarashingizni boyitmoqchi va boshqa ijtimoiy sabablarga ko'ra jahonga yuzlanmoqchi bo'lsangiz ,til o'rganing ! Bu shunchaki tavsiya emas ,zamon talabidir. Dunyodagi ko'plab millatlarni tanimoqchi , yangiliklardan birinchilardan bo'lib boxabar bo'lmoqchi, ilmiy materiallar va adabiyot namunalarni asl nusxada mutolaa qilmoqchi bo'lsangiz ,ingliz tilini o'rganish - siz uchun ! Va eng asosiysi o'zingiz uchun madaniy hordiq sifatida dunyo kezib , mamlakatingizga yangi g'oyalar bilan qaytish niyatida bo'lsangiz ingliz tilini o'rganishni hozirdan boshlang !

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent-2000
2. Xalqaro turizm .Mamatqulov X. M , Tuxliyev I. S, Bektemirov A. B.
3. Zamonaviy jamiyatda ingliz tilining ahamiyati. Maqola.